

**BUDJET JARAYONIDA DAVLAT IQTISODIY ISLOHOTLARINI  
RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*

*Qahramonova Xusnora*

**ANNOTATSIYA:** Davlat budjeti — davlat pul mablag‘larining, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**KALIT SO‘ZLAR:** Davlat budjeti, Budget jarayoni, budget dotatsiyasi, budjetdan mablag‘ ajratish, budget ssudasi, budget so‘rovi, budget transferti, Iqtisodiy islohotlar.

**Davlat budjeti** — [davlatning](#) qanchadir vaqt (odatda bir yil) uchun mo‘ljallangan pul daromadlari va xarajatlari majmui. Davlat budjeti davlat ixtiyoridagi pul fondlarining taqsimlanishini bildirib, u davlat moliyasining bosh bo‘g‘ini hisoblanadi. Davlat budjeti tarkibida umumdavlat (yoki markaziy) budjeti (mamlakat miqyosidagi umumiy daromadlar va xarajatlar yig‘indisi) va mahalliy (munitsipal) byudjet (hududiy tuzilmalar — o‘lka, viloyat, tuman va hokazolar doirasidagi pul daromadlari va xarajatlari)ga bo‘linadi. Ikki turdagi budjetlar nisbati mamlakatning ichki sharoitiga bog‘liq bo‘ladi. Davlat jamiyatga ijtimoiy xizmatlar (milliy xavfsizlikni ta‘minlash, jamoat tartibini saqlash, atrof-muhitni himoya qilish, nochorlarga yordam berish, aholiga bepul ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va boshqalar ko‘rsatadi va bularning barchasi xarajat talab qiladi. Budget daromadlari soliqlar, solikdan tashqari yig‘imlar, davlat zayomlaridan tushgan pul, davlat mul-kini sotishdan yoki ijaraga berishdan kelgan mablag‘lardan shakllanadi. Budget daromadining aholi jon boshiga hisoblangan miqdori mamlakatning budjet salohiyati (potensial) deb yuritiladi va

bu budjet daromadining umumiy hajmiga hamda aholining soniga bog'liq. Budjet xarajatlari uning daromadidan ortib ketsa, byudjet taqchilligi, ya'ni kamomadi yuzaga keladi. Kamomad miqdori mamlakat yalpi milliy mahsulotning 3—3,5 % ga teng bo'lishi me'yoriy hisoblanadi. Budjet kamomadining judayam oshib ketishi va uni daromad bilan ta'minlash mumkin bo'lmaganda byudjet xarajatlari qisqartiriladi. Markaziy, mahalliy davlat byudjetlari va davlat byudjetidan tashqari fondlar (davlatning muayyan maqsadli fondlari, maxsus maqsadli soliqlar, zayomlar, budjetdan subsidiyalar hisobiga yaratiladigan maxsus fondlar) yig'indisi davlatning yigma byudjetini tashkil etadi. Davlat budjeti, oddiy hoolatda joriy yilda kelgusi yil uchun tuziladi. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida u chorak yoki yarim yilga tuzilishi ham mumkin. Davlat budjetini hukumat tuzadi va yuqori qonun chiqaruvchi organ ([parlament](#)) tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat budjeti mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham ifodalaydi. Jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va faoliyatiga qarab davlat byudjeti mohiyati, uning daromadlari va xarajatlari xususiyati hamda tarkibi turlicha bo'ladi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda davlatning iqtisodiyot, ishlab chiqaruvchi, milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashga faol aralashuvi davlat byudjeti mavqeining oshishiga sabab bo'ladi, milliy daromad davlat ixtiyorida yig'iladi va uning byudjet orqali qayta taqsimlanadigan qismi ko'payadi.

**Budjet jarayoni** — davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni — Bu faoliyat bosqichma — bosqich amalga oshiriladi va har yili takrorlanib turadi . Budjet jarayoni bosqichlarining davomiyligi byudjet loyihasini tayyorlashdan boshlab byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni tasdiqlash jarayoniga qadar bo'lgan muddat uch yilni tashkil etadi. Budjet jarayonining mazmuni mamlakatning davlat va byudjet tuzilishi, davlat hokimiyati organlarining byudjet huquqlari bilan belgilanadi.

budjet dotatsiyasi — o‘z daromadlari va budjetni tartibga soluvchi boshqa mablag‘lar yetishmagan taqdirda quyi budjetning xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari;

budjetdan mablag‘ ajratish — qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat budjetidan budjet tashkilotlariga hamda boshqa budjet mablag‘lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag‘lari;

budjet ssudasi — yuqori budjetdan quyi budjetga yoxud respublika budjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘;

budjet subvensiyasi — qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari;

budjet so‘rovi — budjet tasnifi bo‘yicha tushumlarni shakllantirish va budjetdan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi so‘rov;

budjet tashkiloti — zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat budjetidan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan va bu mablag‘ moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkiloti;

budjet taqchilligi — muayyan davrda budjet xarajatlarining budjet daromadlaridan ortiq bo‘lgan summasi;

budjet transferti — budjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag‘lari;

**Iqtisodiy islohotlar** - iqtisodiyotni boshqarishda, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yo‘llari va usullarida yirik qayta qurishlar, o‘zgartirishlar samaradorligi past muayyan iqtisodiy tizimni takomillashtirish yoki eski tizimdan yangisiga o‘tish maqsadlarida amalga oshiriladi. Iqtisodiy tizimning samaradorligi qoniqarsiz bo‘lgan, iqtisodiy tangliklar yuz bergan, iqtisodiyot kishilarning ehtiyojlarini yetarli qondirmagan hollarda, mamlakat o‘z taraqqiyotida boshqa mamlakatlardan orqada qolgan sharoitlarda o‘tkaziladi. Iqtisodiy islohotlar

larzalarsiz, aniq maqsadlar ko'zlangan holda, qabul qilingan qonunlarga binoan va davlat rahbarligida o'tkaziladi. Iqtisodiy islohotlar evolyusion rivojlanishni ta'minlaydi. 20-asr oxiri va 21-asr boshlaridagi Iqtisodiy islohotlar umumbashariy bo'lib, deyarli hamma mamlakatlarda o'tkazildi. Bozor iqtisodiyoti qaror topgan mamlakatlarda Iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan bo'lib, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash, iqtisodiyot sub'yektlari mustaqilligini kuchaytirish, monopoliyalar faoliyatini nazorat qilish, erkin narxlarga yo'l berish, xullas bozor mexanizmining to'laroq amal qilishiga sharoit yaratib berishga qaratildi. Yangidan mustaqil bo'lgan yosh mamlakatlarda (sobiqsotsialistik mamlakatlar va SSSR tarkibidagi respublikalar).

Iqtisodiy islohotlar 2 yo'nalishda boradi:

- 1) milliy mustaqillikni iqtisodiy jihatdan ta'minlashni ko'zlangan islohotlar;
- 2) rejali iqtisodiyotdan bozor tizimiga o'tishga qaratilgan, ya'ni bozor islohotlari yo'nalishlarida amalga oshirildi.

Birinchi yo'nalish bo'yicha milliy pulni muomalaga kiritish, mustaqil bank, budjet va soliq tizimlarini joriy etish, bojxona xizmatini tashkil qilish va milliy iqtisodiy chegaralarni o'rnatish, ishlab chiqarish tuzilmasini o'zgartirish kabilar amalga oshirildi.

Ikkinchi yo'nalish bo'yicha mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, bozor infratuzilmasini yaratish, rejali davlat narxlaridan erkin bozor narxlarga o'tish, agrar sohadagi o'zgarishlar, tashki iqtisodiy faoliyatni bozor talablariga mos ravishda qayta qurish, monopoliyalarni cheklash, chetdan kapital kiritishni rag'batlantirish kabi choratadbirlar joriy etildi.

Iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi va davom etadi, iqtisodiyotni erkinlashtirishni ta'minlaydi. Iqtisodiy islohotlarga umumiylik va milliylik xos. Ularning umumiyligi Iqtisodiy islohotlar yo'nalishlarining bir xil bo'lishi va yagona bozor tizimining qaror topishidir. Milliylik har bir mamlakatning o'ziga xos sharoitini hisobga olish va shunga qarab islohot tamoyillarini qo'llashdan iborat. O'zbekistonda 1991—2002-yillar davomida

amalga oshirilgan Iqtisodiy islohotlar tanlangan milliy modelga binoan o'tka-zildi va bu jarayon davom etmoqda.

**Xulosa qilib aytish mumkinki:** Davlat budjeti iqtisodiy jihatdan samarali budjetlashtirish tashkilotlarga o'z resurslarini optimallashtirish va maqsadlariga samarali erishishda yordam beradigan asosiy moliyaviy strategiyadir. Iqtisodiy jihatdan samarali budjetlashtirish tamoyillariga rioya qilish va doimiy takomillashtirishga e'tiborni qaratish orqali tashkilotlar moliyaviy muvaffaqiyat uchun mustahkam poydevor yaratishi va barcha manfaatdor tomonlar uchun qiymat yaratishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi. O'RQ-360-son. 26.12.2013.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 4 dekabrda "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" O'RQ-589-son Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.12.2019 y., 03/19/589/4126-son
3. T.S.Malikov, O.O.Olimjonov. Moliya. Darslik. – T.: "Iqtisod Moliya" 2019. – 800 b.
4. Маликов Т.С. Бюджет-солиқ сиёсати. Дарслик. – Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2019. – 404 бет.
5. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti);